



DEKONSTRUKSIYA VA TARJIMA TADQIQOTLARI

Ruzimurodova Fariza Dustmurod qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası
3-kurs tayanch doktoranti*

ANNOTATSIYA Dekonstruksiya tarjimaning mohiyati xususida hozirga qadar shakllanib ulgurgan qat’iy tushunchalarni turg’un holatdan noturg’un holatga olib o‘tish xususiyati bilan soha mutaxassislarini o‘ylab ko‘rishga majbur qiladigan tushunchalardan biridir. Dekonstruksiyaning yana bir bahsli jihati shundaki, u mutlaq tarjimaning imkonsizligini ta’kidlash bilan birga tarjima nazariyasi bilimlari mutlaq tarjimaga olib bormasligini ham ilgari suradi. Shu bilan birga Derrida tarjimaning o‘ta zarurligini ham ta’kidlaydi va shu orqali *muqobilini topib bo‘lmaydigan vaziyatlarda ham muqobilni topish hamda tarjima qilinmaydigan tushunchalarni tarjima qilish zarurligi nazariyasini* olg‘a suradi. Dekonstruksiya tarjimaning murakkabligini uning tabiati va amaliyotining o‘zgaruvchanligi va chalkashligi bilan bog‘liq holda qamrab oladi va yoritib beradi. Derrida o‘zining chuqur nisbiylik va ochiq-oydinlik tomonlarini kuzatishiga qaramay, o‘zi va boshqa olimlar tomonidan qayta-qayta ta’kidlanganidek, to‘liq erkin talqinni qo‘llab-quvvatlamaydi. Ushbu maqola tarjima konteksti tartibga soluvchi rol o‘ynashini va Derrida tarjimini ham mumkin, ham mumkin emas, ham hurmatli, ham suiste’mol qilingan deb ta’riflagan tushunchalarni ochib berishni maqsad qiladi. Derridaning tarjima *“mavjud bo‘lgan narsa”* dan ko‘ra *“mavjud bo‘lmagan narsa”* haqida ko‘proq aytib beradi degan chuqur fikridan ilhomlanib, ushbu maqola tarjimada ma’noning ko‘p qirrali ta’sirlarini va turli xil ifoda usullarini yoritib beradi. Bu nazariya turli ma’nolar tovlanishi, tarjima strategiyalari va usullarini o‘rganish hamda kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish maqsadida qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *So‘zma-so‘z ma’no, “differans”, nazariy resurs, kognitiv resurs, mutlaq tarjima, ko‘pma’nolilik;*

ANNOTATION Deconstruction is one of the concepts that compels specialists in the field to reconsider the established notions about the essence of translation, shifting them from a stable to an unstable state. Another controversial aspect of deconstruction is that, while emphasizing the impossibility of absolute translation, it also suggests that knowledge of translation theory does not lead to absolute translation. Simultaneously, Derrida emphasizes the crucial necessity of translation and thereby advances the theory of the need to find

alternatives even in situations where alternatives seem impossible, as well as to translate concepts that appear untranslatable. Deconstruction encompasses and illuminates the complexity of translation in relation to the variability and intricacy of its nature and practice. Despite his observations on deep relativity and transparency, Derrida does not advocate for completely free interpretation, as repeatedly emphasized by himself and other scholars. This article aims to demonstrate that the context of translation plays a regulatory role and to explore the concepts through which Derrida defined translation as both possible and impossible, both respectable and misused. Inspired by Derrida's profound idea that translation reveals more about "what doesn't exist" than "what exists," this article highlights the multifaceted effects of meaning and various modes of expression in translation. This theory can be applied to create new possibilities for studying and expanding various meanings, translation strategies, and methods.

Keywords: *literal meaning, "différance," theoretical resource, cognitive resource, absolute translation, polysemy;*

АННОТАЦИЯ Деконструкция - это одно из понятий, которое заставляет специалистов в области перевода переосмыслить сущность перевода, благодаря своей способности переводить устоявшиеся до сих пор концепции из устойчивого состояния в неустойчивое. Еще один спорный аспект деконструкции заключается в том, что, подчеркивая невозможность абсолютного перевода, она также утверждает, что знание теории перевода не ведет к абсолютному переводу. В то же время Деррида подчеркивает крайнюю необходимость перевода и тем самым выдвигает теорию о необходимости поиска альтернативы даже в ситуациях, когда альтернативы, казалось бы, нет, а также о необходимости перевода непереводаемых понятий. Деконструкция охватывает и освещает сложность перевода в связи с изменчивостью и запутанностью его природы и практики. Несмотря на то, что Деррида прослеживает глубокую относительность и ясность своих аспектов, он не поддерживает полностью свободную интерпретацию, как неоднократно подчеркивали он сам и другие ученые. Данная статья направлена на то, чтобы показать, что контекст перевода играет регулирующую роль, и раскрыть понятия, через которые Деррида определял перевод как возможный и невозможный, уважаемый и отверженный злоупотреблениям. Вдохновленная глубокой идеей Деррида о том, что перевод говорит больше о "несуществующем," чем о "существующем," эта статья освещает многогранные воздействия смысла и различные способы выражения в переводе. Эта теория может быть использована для создания новых возможностей изучения и расширения различных смысловых вариаций, стратегий и методов перевода.

Ключевые слова: *буквальное значение, "différance," теоретический ресурс, когнитивный ресурс, абсолютный перевод, многозначность.*

“Fidelity is ethical, but also, in the full sense, economic”

(Sadoqat nafaqat axloqiy, balki to‘liq ma‘noda iqtisodiy jihatdan ahamiyatli hamdir.)

George Steiner, *After Babel*

Tarjima sohasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi dekonstruksiyaning foydali jihatlari, yuzaki o‘qib xulosa chiqarish, so‘zning mutlaq bir ma‘noli ustuvorligini shubha ostiga olish orqali va so‘zma-so‘z ma‘no haqidagi qarashlarga qarshi chiqishida namoyon bo‘ladi. Agar so‘zma-so‘z ma‘no allaqachon ko‘chma ma‘noni talqin qilish imkoniyati yoki maydonini ifodalasa, *differans* tushunchasi so‘zma-so‘z ma‘no g‘oyasi bilan kesishib, maqsad va tasavvur rollarini yanada murakkablashtiradi. Tarjima doimo o‘zaro madaniyatlararo kesishuv maydonlarini qamrab olgani sababli, dekonstruktiv fikrlashdan kelib chiqadigan chuqur idrokli va ilhomlantiruvchi natijalar tufayli tarjima tadqiqotlari bilan shug‘ullanish yanada sermazmun, qiziqarliroq qilishi mumkin bo‘ladi.

Garchi *Derrida* to‘liq erkin talqinni nazarda tutmagan bo‘lsa-da, dekonstruksiya tushunchasi tarjimaning mohiyati haqida ayrim tushunmovchiliklarni keltirib chiqardi. Pimning fikricha, tarjimonlar “mavjud variantlar orasidan tanlov qilishlari kerak, ularning ko‘pchiligi ko‘pma‘nolilikni foydali tarzda kamaytirishi mumkin”³²⁹. Biroq, kimga va qanday foyda keltirishi haqida aniq savollar tug‘iladi. Shubhasiz, amalda tarjimonlar tanlov qilishga majbur. Ammo aynan shu tanlov ma‘noni uzatishda muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Bu borada Pimning fikri o‘rinli. U Derridaning bitta jumlasining to‘rtta tarjima variantini keltiradi. Ularning barchasi bir-biridan farq qiladi va bir xil ma‘noni anglatmaydigandek tuyuladi³³⁰. Ahamiyatlisi shundaki, Pim avvalgi tarjimaga nisbatan dekonstruksiya haqidagi skeptik qarashlariga qaramay, Ketlin Devisni Sent-Jerom nashriyoti tomonidan chop etilgan “Translation Theories Explained” turkumiga “*Dekonstruksiya va tarjima (Deconstruction and Translation)*” nomli kitob yozishga taklif etdi. Bu ixcham kitob 2001-yilda nashrdan chiqdi va tarjima tadqiqotlarida keng ta‘sirga ega bo‘lib, ko‘p iqtibos keltirdi. Shuningdek, u dekonstruksiyaning o‘ziga xos murakkab tabiatiga qaramay, tarjima tadqiqotlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishini va shu sababli e‘tiborga olinmasligi mumkin emas, aksincha chuqur va keng qamrovli ahamiyatga ega bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Dekonstruksiya tarjima tabiati haqidagi an‘anaviy tarzda qabul qilingan tushunchalarni beqarorlashtirish nuqtai nazaridan xavotirli ekanligini inkor etib bo‘lmaydi. Avvalo, semantik dahlsizlik endi mavjud emas va bir o‘lchovli muammodan ko‘ra ko‘proq narsaga aylandi. Taxmin qilingan dahlsizlik yo‘qotilgandan so‘ng, cheksiz imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Lekin bu imkoniyatlar maqsadga olib boradimi? Ularning haqiqiy tarjima uchun foydasi bormi? Ammo bir dalilni e‘tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Agar cheksiz talqin imkoniyatlari yaratilsa, tarjima asl nusxadagi ko‘pma‘nolilikni yetarli darajada ifodalash uchun ma‘nolar o‘yinini

³²⁹ Pym, Anthony (1995), ‘Doubts about Deconstruction as a General Theory of Translation’, *TradTerm* (São Paulo) 2, p. 11–18.

³³⁰ Yuqoridagi manbaa.

yuzaga keltiradi. To‘g‘ri, kopma‘nolilik tarjimaning butun amaliyotini qiyinlashtirsa-da, tarjima albatta bir tarafga yo‘naltirilgan va sodda bo‘lishi kerak degan qulay tasavvur bilan bog‘liq bo‘lsa-da, u tarjimonga mohiyatan tarjima qilib bo‘lmaydigan narsani yengishga imkon beradigan imkoniyatlarni ochadi va o‘rganadi. Tarjima muammolarini yaratish o‘rniga, dekonstruksiya tarjimonga tarjima muammolariga yechishga qaratilgan yondashuvlarni o‘rganish imkonini beradi. Dekonstruksiya an‘analarga sodiq qolish tushunchasini tubdan o‘zgartirib yuboradi. Ma‘noning plyuralistik tabiatiga ko‘ra, aynan qaysi tarjima to‘g‘ri bo‘lsa, o‘sha jiddiy va oxir-oqibatda bahsli hisoblanadi. Ma‘noga haddan tashqari chuqur sho‘ng‘ib ketmaslik kerakligi haqidagi ishora tushunarli, ammo qayta ko‘rib chiqishga, fikrlashga undaydi. Bundan tashqari, dekonstruksiya mutlaq tarjimaning imkonsiz tabiatini tan olishni va shu bilan birga uning zarurligini tan olish nuqtai nazaridan unga murojaat qilish orqali tarjimada mutlaq asliyatga sodiq qolib bo‘lmasligidan kelib chiqib, uni amalga oshirish uchun *nazariy va kognitiv* resurslarni taqdim etadi.

Venutining ta‘kidlashicha, tarjima nazariyasi tarixi, boshqa masalalar qatori, ekvivalentlik va funksiya kabi ikki qarama-qarshi tushuncha bilan shug‘ullangan³³¹. Aslida, Tarjimashunoslik *so‘z va ma‘no, shakl va mazmun* kabi o‘zaro zid tushunchalarning uzun ro‘yxatiga to‘la bo‘lib, ular ko‘pincha bir-birini inkor etadigandek tuyuladi. 1980-yillardan boshlab tarjimaning qat‘iy o‘rnatilgan tushunchasi sifatidagi *ekvivalentlik* tobora ko‘proq shubha ostiga va hatto masxara ostiga olinmoqda, hatto ba‘zilar undan butunlay voz kechmoqda. Shunga qaramay, uni tarjimashunoslikdan butunlay chiqarib tashlash qiyin. Ekvivalentlik bilan bog‘liq aniqlik, *adekvatlik, to‘g‘rilik, muvofiqlik* va ayniqsa, *sodiqlik* kabi ba‘zi o‘zgaruvchan atamalar tarjima tadqiqoti va tanqidining faol lug‘atida saqlanib qolayotganini kuzatish mumkin. Qiziq tomoni shundaki, Derrida ham “...*tarjima har qanday parafraza, tushuntirish, tahlil va shu kabilardan tashqari, miqdor jihatidan ham asl nusxaga teng bo‘lishi kerak*”³³² deb ta‘kidlagan. Bu tarjimaning *zaruriy adekvatligiga* ishora qilayotgandek. E‘tiborli jihati shundaki, garchi dekonstruksiya ekvivalentlikning an‘anaviy tushunchalariga qarshi chiqishi kerak bo‘lsa-da, Derrida hamon bu atamani qo‘llaydi. Nima uchun u “sifat jihatidan ekvivalent” yoki “mohiyatan ekvivalent” emas, balki “*miqdor jihatidan ekvivalent*” iborasini ishlatgan? Ochig‘ini aytganda, keyingi iboralar dekonstruksiya mohiyatiga zid bo‘lard. “Miqdor jihatidan asl nusxaga teng bo‘lish” go‘yo izomorf ekvivalentlikka intilishni anglatadi. Bundan tashqari, asl nusxaga miqdor jihatidan ekvivalent bo‘lish (axir asl nusxa mavjud-ku) qisqartirish yoki soddalashtirishdan qochish uchun o‘rin almashtirishlarga ruhsat beradi, bu esa asl nusxaga sifat jihatidan ekvivalent deb hisoblanmaydi. Natijada, bu faoliyatlarni amalga oshirish uchun bir qator imkoniyatlar paydo bo‘ladi.

Pymning fikriga ko‘ra, ekvivalentlik qat‘iy ma‘noda mavjud bo‘lmasa-da, u zaruriy funksional illyuziya sifatida xizmat qiladi. Bu mavjud bo‘lmagan illyuziya amaliy jihatdan

³³¹ Venuti, Lawrence (2000), *The Translation Studies Reader*, London and New York: Routledge. 5p.

³³² Derrida, Jacques (2013), *Signature Derrida*, Chicago: University of Chicago Press. 356p.

foydali, chunki u tarjimani operatsion jihatdan amalga oshirishga imkon beradi. Shu tufayli tarjima jarayoni boshlanib, ko‘rib chiqilayotgan muammolarga mos yechimlar topishga yo‘naltiriladi. Ma‘no ko‘chirishda asosiy muammo an‘anaviy ekvivalentlik tushunchasi hisoblanadi. Uning qat‘iyligi Derrida tomonidan shubha ostiga olingan bo‘lib, bu uning “tegishli tarjima” haqidagi erkin ta‘rifida o‘z aksini topgan:

Shunday qilib, nima to‘g‘ri tuyulsa, nima o‘rinli, tegishli, maqbul, mos, qulay, asosli, mos keluvchi yoki moslashtirilgan bo‘lib ko‘rinsa, aynan siz kutgan paytda yuzaga kelsa yoki tegishli harakat deb ataladigan narsaga kerakli darajada mos kelsa: tegishli nutq, tegishli taklif, tegishli qaror, tegishli tarjima. Bularning barchasi o‘rinlidir³³³. Keyin u shunday xulosaga keladi: tegishli tarjima – bu “yaxshi tarjima”, ya‘ni “asl matn uchun eng mos ekvivalent” (o‘sha manba, 368). Bu so‘zlar Venuti tomonidan aytilgan bo‘lsa-da, ular aslida Derridaning tashvishini ifodalaydi. U, ayniqsa, belgilovchilarning chegaralarini hisobga olgan holda, tautologik tarzda ifodalab bo‘lmaydigan va sezilarli ishonchsizlikni anglatuvchi sinonim so‘zlar ro‘yxatidan foydalangan. Biroq uning maqsadi aniq: “tegishli” tushunchasi bilan nimani nazarda tutganini yetkazish. Shuningdek, u ekvivalentlik faqat tegishli bo‘lgandagina ma‘noga ega bo‘lishini ta‘kidlamog‘chi.

Derridaning bunday murakkab va aylanma iboralarni qo‘llashi biror narsani yashirishga urinish emas, aksincha, u o‘z maqsadiga aniq yetishga intiladi. Nishonga tegmasligi mumkin bo‘lgan bitta o‘q otish o‘rniga, u ko‘plab o‘qlarni yog‘diradi. Derridaning eng muvofiq so‘zni qidirishdagi tinimsiz harakati noaniqlikdan ko‘ra ko‘proq hal qilib bo‘lmaslik bilan bog‘liq, chunki ko‘pincha yanada yaxshiroq so‘zni topish imkoniyati mavjud. Bu hal qilib bo‘lmaslikning amalda namoyon bo‘lishining ajoyib misoli hisoblanadi va uning butun asari davomida hal qilib bo‘lmaydigan unsurlar uchraydi. Uning soddalashtirishni qabul qilishni istamasligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, bu tarjimaga oid to‘liqsizlik muammosini chetlab o‘tib bo‘lmasligini ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida hal qilib bo‘lmaslikni keltirib chiqaradi. Takroriylik tamoyili uning ma‘no aniqligi borasidagi tashvishining aniq ifodasidir.

Venutining ta‘kidlashicha, “poststrukturalistik matnshunoslik tarjimadagi ekvivalentlik tushunchasini qayta belgilaydi, chunki u har bir matndagi differensial ko‘plik ma‘noning oddiy mosligiga yo‘l qo‘ymasligini boshidanoq tan oladi³³⁴”. Ma‘nodagi ko‘pqirralilikni anglash dekonstruksiyaning ma‘no mohiyatini chuqur tushunishini ko‘rsatadi. Chunki yuzaki moslik-shunchaki adekvatlikning o‘zi sodda va qisqartirilgan bo‘lib, asl matnning teran ma‘nosi va boyligini to‘liq aks ettira olmaydi. Derrida noaniqlik haqida hech qachon gapirmaganini qat‘iy ravishda ta‘kidlaydi. Uning uchun muhimi shundaki, “différance bu noaniqlik emas”. Bundan tashqari, qaror qabul qila olmaslik ham noaniqlikning natijasi emas. Aksincha, u qisman asl nusxaga xos bo‘lgan ko‘ptalqinlilikni yashirin tan olishdir, chunki tildagi xilma-xillik ma‘noning erkin o‘yinida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, bo‘shliqlar ham, izlar ham

³³³ Derrida, Jacques and Lawrence Venuti (2001), ‘What Is a “Relevant” Translation?’, *Critical Inquiry* 27: 2 (Winter), 368p.

³³⁴ Venuti, Lawrence (1992), *Rethinking Translation: Discourse, Subjectivity, Ideology*, London and New York: Routledge. 7p.

ko‘pma’noga ishora qiladi va uni yuzaga chiqaradi. *Qisqacha aytganda, dekonstruksiya cheksiz ko‘p ma’nolarni va cheksiz ko‘ptalqinlilik o‘yinini anglatadi.* Ko‘pma’nolilikning yo‘qolishi va unga zarar yetkazilishi tarjimaning asliyat darajasida emasligi xavotirini oshiradi va ayni paytda tarjima qilish imkoniyatlarining chegaralarini belgilaydi. Tarjimaning performativligini optimallashtirish o‘zaro ta’sir jarayoni bo‘lib, o‘tib bo‘lmas ko‘ringan ma’no to‘siqlarni bartaraf etishga yordam beradi. Derrida shunday deydi: Tarjimani an’anaviy tushunchalardan voz kechib, uning mohiyatini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlash va to‘g‘ri e’tirof etish lozim. Derrida tarjimaning oddiy ko‘chirish jarayonidan ancha murakkab ekanligini ta’kidlaydi. Tarjima asosiy ma’lumotni *semantik uzatishdan ko‘ra kengroq* tushuncha ekanligi qayta-qayta ta’kidlanadi. Derrida mutlaq tarjima qilib bo‘lmaslik masalasida ko‘p yillik ikkilanish holatiga tushib qolgan. Biroq, u aniq ko‘rsatganidek, tarjima qilinmaslik faqat *nisbiy tushunchadir*. Umuman olganda, ma’nolar xilma-xilligining yo‘qolishi xavfi tarjima qilinmaslik haqida tashvish uyg‘otadi. Ma’lum ma’noda, qaror qabul qila olmaslik tarjima qilib bo‘lmaslik borasida nima qilish kerakligini aks ettiradi. Shuningdek, buni tarjimada ma’nolar xilma-xilligini yo‘qotishdan qanday qochish yoki kamaytirish borasidagi noaniqlik yoki qat’iyatsizlik sifatida talqin qilish mumkin. Shu sababli faqat belgilovchilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq emas.

Eng muhimi, qaror qabul qila olmaslik asliyatga sodiqlikning an’anaviy tushunchasiga oid savollarni keltirib chiqaradi. Masalan, biror narsaning ham lug‘aviy, ham majoziy ma’nosi bo‘lib, ular o‘rtasida sezilarli farq mavjud bo‘lsa, tarjimon qaysi biriga sodiq qolishi kerak? Agar tarjimon mavjud narsaga sodiq qolsa-yu, mavjud bo‘lmagan narsaga sodiq qola olmasa - yodda tutishimiz kerakki, ifoda etilayotgan narsa doim ham ko‘rinib turgan narsa bo‘lavermaydi - sodiqlik amaliy ahamiyatini yo‘qotadi va undan ham yomoni, jiddiy chalg‘itishi mumkin. Ko‘pincha tarjima jarayonida asl nusxadagi ifodaga yuzaki “teng” bo‘lmagan boshqa ifoda topishga to‘g‘ri keladi. Ta’kidlash joizki, **differans** tushunchasi so‘zma-so‘z ma’noning yuzaki ma’no bilan aloqasi g‘oyasini o‘z ichiga oladi. Ehtiyotkorlik bilan tanlangan mos belgilar yordamida yuzaki tarjima qilish muammoli bo‘lishi mumkin. Buning sabablaridan biri shuki, manba tildagi etimologik zanjirni tarjima tilida kuzatish yoki qayta yaratish deyarli imkonsiz. Etimologiya funksional va kontekstual ma’no uchun juda muhim, ammo tarjima tadqiqotlarida u e’tibordan chetda qoladi, chunki uni qayta yaratish imkoniyati nisbatan past.

Xulosa qilib aytganda, Tarjima shunchaki lingvistik faoliyat emas, balki madaniyatlararo munosabatlarni shakllantirish va o‘zgartirishning asosiy usullaridan biridir. Shu bois, tarjimani o‘rganish faqatgina lingvistik ekvivalentlarni aniqlash va sinovdan o‘tkazishdan iborat bo‘lmasligi kerak.

- a. U tarjimaning madaniyatlar orasida harakatlanuvchi matnlar bilan qanday bog‘liqligi haqida savol qo‘yishi;
- b. matnlar nima sababdan harakatlanishi va tarjima qilingan matnlar bu harakatni qanday aks ettirishi mumkinligi to‘g‘risida g‘oyalarga ega bo‘lishi;
- c. shuningdek, madaniyatlararo munosabatlar etikasini va

d. tarjimonlar ularga qanday munosabatda bo‘lishi kerakligini o‘rganishi lozim.

Qisqasi, tarjimonlar ishini madaniyatlararo o‘tkazish muammolari bilan bog‘lab, tarjimashunoslik ijtimoiy fanlar orasida o‘zining munosib fanlararo o‘rnini egallashi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pym, Anthony (1995), ‘Doubts about Deconstruction as a General Theory of Translation’, *TradTerm* (São Paulo) 2, pp. 11–18.

2. Venuti, Lawrence (2000), *The Translation Studies Reader*, London and New York: Routledge. 5p.

3. Derrida, Jacques (2013), *Signature Derrida*, Chicago: University of Chicago Press. 356p.

Derrida, Jacques and Lawrence Venuti (2001), ‘What Is a “Relevant” Translation?’, *Critical Inquiry* 27: 2 (Winter), 368p.

4. Venuti, Lawrence (1992), *Rethinking Translation: Discourse, Subjectivity, Ideology*, London and New York: Routledge. 7p.